

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinova, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермекбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor; Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildivich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



“YASHIL” IQTISODIYOT VA UNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayoni sanoati rivojlangan davlatlar texnologik bazasining sifat jihatidan rivojlanishini, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini oshirish bilan bir qatorda hayot sifatini hamda yashash muhitini yaxshilashni ta'minlaydigan yangi texnologik tuzilmaga modernizatsiya qilingan iqtisodiyotga o'tishni talab qilmoqda. Xorijda bu jarayonni amalga oshiruvchi “yashil” o'sish iqtisodiy siyosati Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan barcha a'zolarining uzoq muddatli (2030-yilga qadar) rivojlanishini ta'minlovchi strategik yo'nalish sifatida qabul qilingan. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, “yashil” iqtisodiyot an'anaviy “jigarrang” iqtisodiyotga nisbatan qisqa muddatda YalMning o'sishini, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadning ortishini hamda ish bilan bandlikni bir xil yoki undan yuqoriroq ko'rsatkichda oshirishi mumkin. Oxirgi paytlarda o'tkazilayotgan xalqaro munozaralar “yashil” iqtisodiyot tushunchasini aniq ishlab chiqish hamda uni barcha mamlakatlar manfaatlariga mos keladigan holda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni keng tahlil qilish zarurligini anglatadi. Ushbu maqolada “yashil” iqtisodiyot tushunchasini yoritib berishga harakat qilinadi va uni shakllantirish uchun talab etiladigan barcha shart-sharoitlar to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: “yashil” iqtisodiyot, ekologiya, barqaror iqtisodiy o'sish, zaharli gazlar, energetika.

Аннотация: Процесс глобализации мировой экономики требует качественного развития технологической базы промышленно развитых стран, повышения уровня эффективности производства и конкурентоспособности, а также перехода к модернизированной экономике с новым технологическим укладом, обеспечивающим повышение качества жизни и среды обитания. За рубежом реализующая этот процесс экономическая политика “зеленого” роста была принята Организацией экономического сотрудничества и развития (ОЭСР) в качестве стратегического направления, обеспечивающего долгосрочное (до 2030 г.) развитие всех ее членов. По мнению экспертов, “зеленая” экономика может обеспечить такой же или более высокий краткосрочный рост ВВП, дохода на душу населения и занятости, чем традиционная “коричневая” экономика. Проведенные в последнее время международные дискуссии означают, что необходимо четко разработать концепцию “зеленой” экономики и проанализировать меры по ее реализации в соответствии с интересами всех стран. В данной статье делается попытка уточнить понятие “зеленая” экономика и рассказывается обо всех условиях, необходимых для ее формирования.

Ключевые слова: “зеленая” экономика, экология, устойчивый экономический рост, токсичные газы, энергетика.

Abstract: The process of globalization of the world economy requires the qualitative development of the technological base of industrialized countries, increasing the level of production efficiency and competitiveness, as well as the transition to a modernized economy with a new technological structure that ensures the improvement of the quality of life and living environment. Abroad, the “green” growth economic policy that implements this process has been adopted by the Organization for Economic Co-operation and Development (OECD) as a strategic direction that ensures the long-term (until 2030) development of all its members. According to experts, a “green” economy can generate the same or higher short-term GDP growth, per capita income, and employment than a traditional “brown” economy. . Recently, the international discussions that have been held mean that it is necessary to clearly develop the concept of “green” economy and to analyze the measures for its implementation in accordance with the interests of all countries. This article tries to clarify the concept of “green” economy and talks about all the conditions required for its formation.

Key words: “green” economy, ecology, sustainable economic growth, toxic gases, energy.

KIRISH

Jamiyatda asta-sekinlik bilan tabiiy resurslarni rekreatsiya hamda ilmiy tadqiqot maqsadlarida asrab qolish zaruriyati to'g'risidagi g'oyalar kelajak avlod oldida ekologik mas'uliyatga asoslangan ilmiy tushunchalar shakllanishiga olib keldi. Bu g'oyalarning amaliyotga tatbiqi barqaror rivojlanishni ta'minlash orqali hal etilishi lozim.

Barqaror rivojlanish deyilganda, aholi ehtiyojlarini to'la qondirish maqsadida kelajak avlod ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini xavf ostiga qo'ymaslikka qaratilgan rivojlanish tushuniladi. Barqaror rivojlanishni “ijti-



moiy”- “iqtisodiy”-“ekologik” uchlikning o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanishiga asoslangan sinergetik samara hisobiga taraqqiy etadigan jarayon sifatida tasavvur etishimiz mumkin. Barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi iqtisodiy yondashuv cheklangan resurslardan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Ijtimoiy yondashuv global darajada ijtimoiy barqarorlik hamda madaniy xilma-xillikni ta’minlashga yo’naltirilgan bo’ladi. Ekologik yondashuv esa har qanday ekologik tizimlarning o‘z me’yorida faoliyat yuritishini ta’minlashga xizmat qilishi zarur bo’ladi. Barqaror rivojlanish tushunchasiga nisbatan iqtisodiy yondashuvga Ye.R.Lindal va J.R.Xiksler asos solishgan¹. Ushbu maqolada biz “yashil” iqtisodiyot sohasidagi mavjud adabiyotlar to’plamiga umumiy nuqtayi nazarini taqdim etish hamda sohada eng faol olimlar, muassasalar va tegishli nashrlarning ilmiy tadqiqotlarini o’rganib, tahlil qilish orqali “yashil” iqtisodiyot tushunchasini va unga olib boruvchi yo’lni aniqlashtirishni maqsad qilganmiz.

ADABIYOTLAR SHARHI

“Yashil” iqtisodiyot bo’yicha adabiyotlar So’nggi yillarda keng hamda muhim qo’llanilishi, shuningdek, ekologik xabardorlik va yashil mahsulotlar va xizmat ko’rsatish tufayli rivojlandi hamda boyitildi.

Tor ma’noda, “yashil” iqtisodiyot deganda ekologiyani ifloslantiruvchi moddalar hamda issiqxona gazlarining emissiyasini tartibga solish va qisqartirish, iqlim o’zgarishini kuzatish hamda prognozlash, shuningdek, energiya va resurslardan samarali foydalanish texnologiyalarini hamda qayta tiklanadigan energiya manbalari uchun texnologiyalarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish tushuniladi (N.A.Xakimova, 2019). “Yashil” iqtisodiyotga o’tish nazariy va g’oyaviy jihatdan asoslangandan keyin, uning huquqiy asoslarini shakllantirish hamda sohaga oid tegishli qonunchilikni ishlab chiqish zaruriyati paydo bo’ladi. “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga oid qonunchilik iqtisodiyotni “yashillashtirish”ga ko’maklashishi bilan bir qatorda barcha xo’jalik subyektlari manfaatlariga mos kelishi zarur (A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev va boshqalar, 2020). “Yashil” iqtisodiyot sari qadam innovatsion fiskal vositalarni joriy etish orqali to’ldirilishi mumkin (M.A.Qarshiyeva, N.G’.Xidirov, 2022). Bugungi kunda zamonaviy ekologiya shunchaki jonivorlar va o’simliklar hayotini tasvirlamaydi, aksincha ularning kelajagini bashorat qilish bilan shug’ullanadi (S.M.Xaydarov, 2018).

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ushbu maqola mavzusi bo’yicha ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlarni tahlil qilish orqali biz o’rganishimiz, yechim topishimiz kerak bo’lgan savollarni shakllantirib oldik. Yig’ilgan ma’lumotlarni tanlagan tadqiqot usullarimiz hamda tahliliy uslublarimiz orqali chuqur tahlilini amalga oshiramiz. Tadqiqot natijalarimizdan ko’zlagan samarani olishimiz uchun tadqiqot mavzusi bo’yicha yetarlicha sifat va miqdoriy ma’lumotlar to’plashimiz talab etiladi. “Yashil” iqtisodiyot haqida yurtimiz va chet el olim, tadqiqotchilari tomonidan yaratilgan adabiyotlarning elektron hamda bosma nashrlarini to’plash tadqiqot mavzumizni nazariy jihatlarini yoritib berishga yordam beradi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida to’plangan sifat ma’lumotlarini miqdorlashtirilgan hamda miqdorlashtirilmagan usullar yordamida tahlil qilamiz. “Yashil” iqtisodiyot bilan bog’liq to’plangan miqdoriy ma’lumotlarimizni tasviriy va inferensial statistika usulidan foydalanib tahlil qilishga urinamiz. Jumladan, grafiklar hamda tasvirlash usullari yordamida tadqiqotimizni boyitamiz.

Ekologiyaning izdan chiqishi, iqlim o’zgarishining xatarli oqibatlari bugungi kunda insoniyatga ulkan tahdid tug’dirmoqda. Hozirgi kunda atmosferada karbonad angidrid gazi (CO_2) konsentratsiyasi ekologik sarhadga yaqinlashib qoldi hamda zarur chora-tadbirlar ko’rilmasa, yaqin kelajakda bu ko’rsatkich yanada yomonlashishi mumkin. Iqlim o’zgarishi ko’plab davlatlarda dengiz sathining ko’tarilishiga sabab bo’lmoqda. Xatarli jihati shundaki, rivojlanayotgan mamlakatlarda 14 foiz aholi va 21 foiz shaharliklar suv toshqini xavfi mavjud bo’lgan sohilbo’yi mintaqalarida istiqomat qiladi².

Dunyoda yoqilg’i inqirozi tahdidi ortib bormoqda. Xususan, jahon iqtisodiy-moliyaviy inqirozidan avval, bir barrel neftning bahosi 150 AQSh dollaridan oshgan edi. Retsessiya sabab neftning bir barreli 40 AQSh dollaridan ham pasayib ketgan bo’lsada, Xalqaro energetika agentligi bashoratlari ko’ra, talabning oshishi hamda ishlab chiqarish hajmi chegaralangani tufayli 2030-yilda neftning bir barreli 200 AQSh dollariga qadar ko’tarilishi mumkin.

UNEP tadqiqotlari shuni ko’rsatadiki, jahon tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish kelgusi avlod uchun 2050-yilgacha har yili 2 trln. dollar iqtisodiy foyda olish imkonini yaratadi. Ushbu davrda dunyo aholisi soni 28%ga, aholi jon boshiga to’g’ri keladigan resurslardan foydalanish darajasi esa 71%ga oshishi bashorat qilinmoqda.

Barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi xalqaro amaliy faoliyat BMT tashabbusi bilan ilgari surilgan. 2000-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Ming yillik rivojlanish maqsadlari qabul qilindi hamda 2015-yil qo’yilgan

¹ Яшил иқтисодиёт: Дарслик. / А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажибакиев ва бошқалар. — Тошкент: “Universitet”, 2020. -262 б.

² The Ecological Wealth of Nations: Earth’s Biocapacity as a New framework for International Cooperation; Human Development report, 2009



maqsadlarga erishishni baholash yili sifatida belgilab olindi. 2012-yilda BMTda Ming yillik rivojlanish doirasida amalga oshirilishi yakunlanmay qolgan maqsadlarni amalga oshirish uchun jahon hamjamiyatini 2015-yildan keyingi rivojlanish maqsadlarini belgilab olish zaruriyati ta'kidlab o'tildi. Shu tariqa BMTning 2012-yilgi barqaror rivojlanish mavzusida o'tkazilgan "Rio+20" Konferensiyasida jahon mamlakatlari rahbarlari Barqaror rivojlanish maqsadlarini (Sustainable Development Goals (SDGs)) ishlab chiqishga kelishib oldilar.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda iqtisodiyotning rivojlanish darajasi ko'p jihatdan energiya resurslari zahiralari bilan bog'liq. Dunyoda aniqlangan tabiiy energiya manbalari zahiralari energiya iste'molining hozirgi kundagi darajasi saqlanib qolsagina, kelgusi 54 yil davomida energiyaga bo'lgan ehtiyojni qondirish imkonini beradi. Iqtisodiy rivojlanish esa energiya ehtiyojining ortishi va energiya tanqisligi muammosi xavfini yanada orttiradi.

AQSh Energiya departamenti mutaxassislari hisob-kitoblariga ko'ra, jahon energiya iste'moli 2012-yilda 13,8 mlrd. t.n.e. ga teng bo'lgan va ushbu ko'rsatkich 2040-yilgacha yiliga o'rtacha 1,4%ga o'sib, 20,5 mlrd. t.n.e. ga tenglashadi (1-jadval).

1-jadval: 2012–2040-yillarda dunyo energiya iste'molining o'zgarishi³

Hududlar	2012-y.	2020-y.	2025-y.	2030-y.	2035-y.	2040-y.	2012–2040-yillarda o'rtacha yillik o'sish sur'atlari, %
IHTT	238	254	261	267	274	282	0,6
Amerika qit'asi	118	126	128	131	134	138	0,6
Yevropa	81	85	87	90	93	96	0,6
Osiyo	39	43	45	46	47	48	0,8
IHTTdan boshqa mamlakatlar	311	375	413	451	491	533	1,9
Yevropa	51	52	55	56	58	58	0,5
Osiyo	176	223	246	270	295	322	2,2
O'rta sharq	32	41	45	51	57	62	2,4
Afrika	22	26	30	34	38	44	2,6
Amerika qit'asi	30	33	37	40	43	47	1,5
Dunyo	549	629	674	718	766	815	1,4

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy tadqiqotlarda "yashil" iqtisodiyot tushunchasi ilk marta 1989-yilda⁴ qo'llanilganligiga qaramasdan uning mohiyati hozirgi paytgacha turlicha talqin etiladi. Ba'zi manbalarda "yashil" iqtisodiyot mamlakat tabiatini yaxshilashga ko'maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq qilinsa, ayrim tadqiqotlarda "yashil" iqtisodiyot tabiatga yordam beruvchi hamda foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o'rganiladi, uchinchi guruh tadqiqotlarda esa "yashil" iqtisodiyot – bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga asoslangan rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish, uning asosini sof yoki "yashil" texnologiyalar tashkil etadi deyiladi.

"Yashil" iqtisodiyot tushunchasining nisbatan keng tarqalgan va to'liqroq ta'rifi BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, "yashil" iqtisodiyot – bu "odamlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish"ga olib keluvchi iqtisodiyotdir⁵. Bu tushunchaning mohiyatini aniqlashda umumqabul qilingan yondashuvning mavjud emasligi "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi hali shakllanish bosqichida ekanligini ko'rsatadi. Ushbu tushuncha iqtisodiyot tarmoqlari, "yashil" iqtisodiyot nazariyasi, tamoyillari yoki "yashil" iqtisodiyot siyosatiga nisbatan ham qo'llaniladi.

Zamonaviy ekologiyani asrashning bosh maqsadlaridan biri bo'lgan qayta tiklanadigan energiya manbalari hamda atrof-muhitga zarar yetkazadigan chiqindilardan samarali foydalangan holda olinadigan biogazlardan mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida keng foydalanishdir. Qayta tiklanadigan energiya atrof-muhit energiya oqimidan olinadigan energiya manbayidir. Bular qatoriga quyosh, shamol, suv resurslari, geotermal manbalar, sanoat va munitsipal, qishloq xo'jalik chiqindilaridan olingan biogazlar kiradi. Muqobil energiya manbalari sha-

3 International Energy Outlook 2016. With Projections to 2040. U.S. Energy Information Administration Office of Energy Analysis U.S. Department of Energy Washington, DC 20585. May 2016. –P. 7-8

4 Blueprint for a green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp.

5 Навстречу "зелёной" экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/ГридАрендаль, 2011. С. 17.



harlarda birlamchi uglevodorod resurslarini tejash hamda mamlakat energetika xavfsizligini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Uglerod va yoqilg'i solig'ini iqtisodiy modellashirish hukumatga toza energiya hamda toza yoqilg'ini kengroq joriy qilish uchun rag'batlarni yaxshiroq aniqlashga imkon beradi.

Sanoatda va binolarda energiya tejoychi texnologiyalardan foydalanish, transport tizimini rivojlantirish "yashil" iqtisodiyot shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu choralar nafaqat energiya sarfini kamaytirish orqali atrof-muhitga zararli chiqindilar chiqarilishini kamaytiradi balki energiyaga sarflanayotgan xarajatlar qisqarishiga ham olib keladi. Atmosferaga uglerod chiqarishda sanoatdan keyingi o'rinda turadigan transport tizimida elektromobillar ishlab chiqarish (ularga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmani yaxshilash), jamoat transportini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Chiqindilarni qayta ishlash ularning ekologiyaga salbiy ta'sirini kamaytiradi, resurslarni tejash hamda mahsulot tannaxrlarini kamaytirish va ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi.

Jahonda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish tashabbusi UNEP tomonidan 2008-yilda ilgari surilgan bo'lib, quyidagi tamoyillarga asoslanadi:


- ekologiya bilan bog'liq muammolarni milliy va xalqaro darajada baholash hamda birinchi kun tartibiga aylantirish;
- "yashil" ishchi o'rinlarni yaratish hisobiga aholi bandligini ta'minlash va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- barqaror rivojlanishga erishish maqsadida bozor mexanizmlaridan foydalanish.

Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra "yashil" iqtisodiyotni shakllantirish yo'nalishlari quyidagilar⁶:

- Qayta tiklanadigan energiya manbalarini takomillashtirish;
- Chiqindilarni boshqarish tizimini isloh qilish;
- Suv resurslari boshqarish tizimini yaxshilash;
- Barqaror "yashil" transportni rivojlantirish;
- Organik dehqonchilikni takomillashtirish;
- Uy-joy kommunal xo'jaligida energiya samaradorligini oshirish;
- Ekotizimlarni saqlash va boshqaruv samaradorligini yaxshilash;
- "Yashil" texnologiyalarni yaratish hamda bozorlarni rivojlantirish.

"Yashil" iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishning jahon tajribasi ko'rsatishicha, ushbu jarayon uzoq muddatli davr hisoblanib, katta miqdorda investitsiyalar talab etishi, asosiy e'tibor qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan oqilona foydalanish, energiya tejoychi texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.


Xalqaro va milliy amaliyotda 2012-yilda UNEP boshqaruv kengashi "Yashil" iqtisodiyot kaolitsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "yashil" iqtisodiyotga o'tishning quyidagi tamoyillari keng tarqalgan (1-rasm).



1-rasm: "Yashil" iqtisodiyot tamoyillari

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish mamlakatlardan aytib o'tilganidek muayyan tamoyillarga asoslanishi, strategiya hamda dasturlar doirasida maqsadli siyosat yuritishni taqozo etadi. "Yashil" iqtisodiyot borasida amalga oshirilayotgan siyosat o'z ta'sir dastaklariga ega bo'lishi lozim. Dunyo amaliyotida yashil iqtisodiy siyosat doirasida qo'llanilayotgan dastaklarni quyidagicha guruhlash mumkin (2-rasm).

6 Marjona Alisher qizi Qarshiyeva. Nodir G'iyosaliyevich Xidirov. O'zbekiston "Yashil" iqtisodiyot sari. Toshkent moliya instituti. "Science and Education" Scientific Journal 3(12).



2-rasm: “Yashil” iqtisodiy siyosat dastaklari

Korxonalarning atrof-muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy cheklovlar ma'muriy dastaklar hisoblanadi. Iqtisodiy dastaklar, odatda, bozor dastaklari deb yuritiladi hamda atrof-muhit muammolarini hal etishda keng qo'llaniladi. Ushbu dastaklar narx mexanizmi va iqtisodiy sharoitlar, ayrim iqtisodiy subyektlar guruhi faoliyatini o'zgartirishga xizmat qiluvchi bozor munosabatlari orqali ishlaydi. Axborot dastaklari iqtisodiy subyektlarni “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish bo'yicha axborotlar bilan ta'minlashning muqobil usullari yoki usullari to'g'risida xabardor qilish samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

“Yashil” AKT deyilganda kompyuter texnologiyalari va aloqa vositalaridan foydalanishda ekologiyaga salbiy ta'sirni kamaytirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish borasida yuqori darajada ijobiy samaraga erishish maqsadida texnologik qarorlar qabul qilish tushuniladi. Iqlim guruhi (The Climate Group) mutaxassis-lari hisob-kitoblariga ko'ra AKT 2030-yilga qadar CO₂ ni atmosferaga chiqarib yuborish hajmini 12,1 mlrd. tonna CO₂ ekvivalentida kamaytirish va 11 trln. dollar foyda olish imkonini yaratadi.

“Yashil” iqtisodiyotga o'tish jarayonida inson kapitalini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. “Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish aholini ekologik jihatdan to'g'ri yo'naltirish, resurslarni tejash, tabiatni asrashga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiyalarni yaratish hamda qo'llash imkoniyatiga ega kadrlarni tayyorlashni talab qiladi. Jumladan, 2010-yilda UNEPning “Green Jobs” (“Yashil” ish o'rinlari) hisobotida yaratilayotgan har bir ish o'rne iqtisodiy barqarorlikni oshirishga xizmat qilishi zarurligi to'g'risida xulosa qilingan⁷.


2-jadval: Jahon Bankining “yashil” o'sishdagi samaradorlik ko'rsatkichlari⁸

	Vosita	Ko'rsatkich
Atrof-muhit	Atrof-muhit holatini yaxshilash	- CO ₂ emissiyasini kamaytirish; - rivojlanishdan himoyalangan tabiiy joylar; - havo va suv resurslari sifati
Iqtisodiyot	Ishlab chiqarish omillarining ortishi (fizik, inson va tabiat kapitalining)	Marjinal mahsulot - ishlab chiqarish omilining bir birlikka ortishi natijasida ishlab chiqarish hajmining ortishi (ekotizim xizmatlari qiymati va tiklanadigan omillarga bog'liq holda)
	Bozor muvaffaqiyatsizliklarini innovatsiyalarni rivojlantirish va bilimlar iqtisodiyoti asosida hal etish	- yashil texnologiyalar samaradorligi ko'rsatkichlari; - yashil texnologiyalar bilan ta'minlanish darajasi
Ijtimoiy	Tabiiy ofatlar, oziq-ovqat mahsulotlari narxlari beqarorligi va iqtisodiy inqiroz holatlariga moslashuvchanlikni oshirish	- ofatlardan ko'rilgan zararlar (pul birligida); - ofatlardan zarar ko'rgan insonlar (kishi); - narx beqarorligidan zarar ko'rganlar (kishi)
	Yaratilgan ish o'rinlari va kambag'allikni kamaytirish	- yaratilgan ish o'rinlari va ularning kambag'allik darajasiga ta'siri; - ish bilan bandlik va resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liqlik ko'rsatkichlar

Jahon Banki tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar “yashil” o'sish natijasida erishish imkoniyatini beruvchi potensial iqtisodiy hamda ijtimoiy samaradorlikni baholashga xizmat qiladi.

⁷ https://www.unep.org/labour_environment/PDFs/Greenjobs/UNEP-Green-Jobs-TowardsSustainable-Summary.pdf

⁸ https://siteresources.worldbank.org/EXTSDNET/Resources/Inclusive_Green_Growth_May_2012.pdf



3-rasm: UNEP tomonidan ishlab chiqilgan "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayoni bosqichlari⁹

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish holatini yoritishda qo'llaniladigan BMT ko'rsatkichlari "yashil" o'sish jarayoni bosqichlari tahliliga bog'liqdir. Mazkur jarayonlar bir-biriga bog'liq bo'lgan uch bosqichdan iborat (3-rasm). Muammoni aniqlash hamda maqsadni belgilash bosqichiga tegishli ko'rsatkichlar qaror qabul qiluvchilar uchun foydali dastak hisoblanib, barqaror iqtisodiy o'sish bo'yicha to'g'ri yo'nalishni aniqlab olish imkonini yaratadi.

XULOSA VA MUNOZARA

"Yashil" iqtisodiyot tushunchasining asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va investitsiyalarni oshirish bilan bir qatorda atrof-muhit muhofazasi hamda ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda yo'naltirish zarurdir. "Yashil" iqtisodiyotning maqsadi tabiiy resurslardan samarali foydalangan hamda salbiy ekologik ta'sirlarni nisbatan kamaytirgan holda barqaror iqtisodiy o'sishga erishishdir.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyatga ega, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi singari xususiyatlarga bevosita bog'liq holda ro'y beradi. Shuning uchun avvalo, o'tish jarayoni uchun qulay (huquqiy infratuzilma, rag'batlantiruvchi omillar va h.k.) muhit yaratish lozim. Agar milliy darajada qo'llanilayotgan rag'batlantirishuvchi omillar, jumladan, investitsiyalar hamda davlat xaridlari "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilsa, iqtisodiy tizimni takomillashtirish jarayoni yanada faollashadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Порфирьев Б.П., "Зеленая" экономика: реалии, перспективы и пределы роста. - М. Карнеги, 2013.
2. Hakimova N.A. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish yo'nalishlari va ustuvorlik xususiyatlari. Iqtisodiyotda innovatsiya jurnali. 2019. 1 vol., issue 1, pp. 54-60
3. Яшил иқтисодиёт: Дарслик. / А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажикаев ва бошқалар. – Тошкент.: "Universitet", 2020. -262 б.
4. The Ecological Wealth of Nations: Earth's Biocapacity as a New framework for International Cooperation; Human Development report, 2009
5. International Energy Outlook 2016. With Projections to 2040. U.S. Energy Information Administration Office of Energy Analysis U.S. Department of Energy Washington, DC 20585. May 2016. –P. 7-8
6. Blueprint for a green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp.
7. Навстречу "зелёной" экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. и др: ЮНЕП/ГридАрендаль, 2011. С. 17.
8. Marjona Alisher qizi Qarshiyeva. Nodir G'iyosaliyevich Xidirov. O'zbekiston "Yashil" iqtisodiyot sari. Toshkent moliya instituti. "Science and Education" Scientific Journal 3(12).
9. Xaydarov S.M. "Yashil" iqtisodiyot asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash: xalqaro tajriba va milliy xususiyatlar. O'zbekiston milliy universiteti. 2018 y.
10. https://www.unep.org/labour_environment/PDFs/Greenjobs/UNEP-Green-Jobs-TowardsSustainable-Summary.pdf
11. https://siteresources.worldbank.org/EXTSDNET/Resources/Inclusive_Green_Growth_May_2012.pdf
12. https://www.un-page.org/files/public/content-page/unep_indicators_ge_for_web.pdf

9 https://www.un-page.org/files/public/content-page/unep_indicators_ge_for_web.pdf

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

